

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti	6
Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана	12
Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....	17
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni	22
A.S.Toshmatov The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....	25
G.Sh.Latipova Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	31
Sh.D.Iskanderova Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners	38
I.M.Saidov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....	43
Н.Ш.Абдуллаева Characteristics and evolution of middle English language.....	48
M.A.G'ofurova Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....	54
N.F.Yigitaliyeva Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi	59
T.T.Shoymardonov Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv	63
S.M.Abdullayev Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....	69
D.O.Djalilova Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlarini	73
D.I.Gulamova Evfemizmlarning o'rganilish tarixi.....	77
B.T.Jumayeva Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	81
A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....	81
A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati.	89
G'.R.Israilov Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli	93
A.X.Karimov Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlarini	97
М.Н.Насритдинова Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....	100



UO'K: 371+372.862(075)

DUAL TA'LIM TIZIMI OLIY TA'LIMDA: XALQARO TAJRIBALAR, SAMARADORLIK VA O'ZBEKISTON KONTEKSTI**ДУАЛЬНАЯ СИСТЕМА ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ, ЭФФЕКТИВНОСТЬ И КОНТЕКСТ УЗБЕКИСТАНА****DUAL EDUCATION SYSTEM IN HIGHER EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCES, EFFECTIVENESS, AND THE CONTEXT OF UZBEKISTAN****Bahodir Shermuhammadovich Shermuhammadov¹**¹Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor**Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna²**²Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika fanlari doktori, professor**Аннотация**

Mazkur maqolada dual ta'lim tizimining nazariy va amaliy asoslari chuqur ilmiy tahlil qilinib, uning rivojlangan mamlakatlardagi samarali joriy etilish usullari hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida uni keng va tizimli ravishda tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Dual ta'lim — bu nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uzviy uyg'unlashtiruvchi, talabalarni zamonaviy mehnat bozorining talablariga samarali moslashishga tayyorlaydigan innovatsion pedagogik model hisoblanadi. Maqolada Germaniya, Shveytsariya, Avstriya va Singapur kabi ilg'or mamlakatlarning dual ta'lim tizimini oliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish tajribalari batafsil yoritiladi. Ushbu mamlakatlarda dual ta'lim orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki real ish sharoitida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniga ega bo'lib, shu orqali ularning kasbiy kompetensiyalari, kritik va mustaqil fikrlash, tahliliy ko'nikmalari shakllanadi. Shuningdek, maqolada dual ta'limning O'zbekiston oliy ta'lim tizimida joriy etilishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ta'lim sohasidagi islohotlar bilan uzviy bog'liqligi va mehnat bozorining zamonaviy talablariga moslashishda o'rni tahlil qilinadi. Dual ta'limning O'zbekiston sharoitida ta'lim sifatini oshirish, talabalarni real ish faoliyatiga tayyorlash va yoshlar bandligini ta'minlashdagi imkoniyatlari, shu bilan birga, uni keng joriy etishda yuzaga keladigan pedagogik, tashkiliy va iqtisodiy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ta'limda amaliyotning ahamiyatini yoritib, dual ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan o'qituvchilar malakasini oshirish, ta'lim dasturlarini mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashtirish hamda ishlab chiqarish va ta'lim o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga e'tibor qaratiladi.

Аннотация

В данной статье глубоко научно проанализированы теоретические и практические основы дуальной системы обучения, а также рассмотрены эффективные способы её внедрения в развитых странах и возможности широкого и системного применения в системе высшего образования Узбекистана. Дуальное обучение представляет собой инновационную педагогическую модель, органично сочетающую теоретические знания и практические навыки, готовящую студентов к эффективной адаптации к требованиям современного рынка труда. В статье подробно рассматривается опыт успешной интеграции дуальной системы обучения в процессы высшего образования и профессиональной подготовки в таких передовых странах, как Германия, Швейцария, Австрия и Сингапур. В этих странах дуальное обучение предоставляет студентам возможность не только освоения теории, но и развития практических навыков в реальных условиях труда, способствуя формированию профессиональных компетенций, критического и самостоятельного мышления, аналитических способностей. Также в статье анализируется социально-экономическое значение внедрения дуального образования в систему высшего образования Узбекистана, его связь с реформами в сфере образования и роль в адаптации к современным требованиям рынка труда. Рассматриваются потенциал дуального образования в улучшении качества обучения, подготовке студентов к реальной профессиональной деятельности и обеспечении занятости молодежи, а также педагогические, организационные и экономические проблемы, возникающие при его масштабном внедрении, и пути их решения. Особое внимание уделено значению педагогических инноваций, современных образовательных технологий и практики в обучении, вопросам

повышения квалификации преподавателей, адаптации образовательных программ к потребностям рынка труда и налаживанию эффективного сотрудничества между производством и образовательными учреждениями.

Abstract

This article provides an in-depth scientific analysis of the theoretical and practical foundations of the dual education system and explores the effective methods of its implementation in developed countries, as well as the potential for its broad and systematic application in Uzbekistan's higher education system. Dual education is an innovative pedagogical model that integrates theoretical knowledge with practical skills, preparing students for effective adaptation to the demands of the modern labor market. The article thoroughly examines successful experiences in integrating dual education into higher education and vocational training processes in leading countries such as Germany, Switzerland, Austria, and Singapore. In these countries, dual education enables students not only to gain theoretical knowledge but also to develop practical skills in real working environments, thereby enhancing their professional competencies, critical and independent thinking, and analytical abilities. The article also analyzes the socio-economic significance of introducing dual education into Uzbekistan's higher education system, its close link with ongoing educational reforms, and its role in aligning with the modern labor market's demands. It considers the opportunities of dual education in improving education quality, preparing students for real work activities, and promoting youth employment, along with pedagogical, organizational, and economic challenges that may arise in the process and potential solutions. Special attention is given to pedagogical innovations, modern educational technologies, and the importance of practical training, including the need for improving teacher qualifications, aligning curricula with labor market needs, and establishing effective cooperation between industry and educational institutions.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, amaliy ko'nikmalar, kasbiy tayyorgarlik, xalqaro tajriba, ta'lim islohotlari, mehnat bozori, pedagogik innovatsiyalar, kritik fikrlash, zamonaviy ta'lim, mustaqil fikrlash, muammoli ta'lim, tahliliy kompetensiya, innovatsion pedagogika.

Ключевые слова: дуальное обучение, практические навыки, профессиональная подготовка, международный опыт, реформы в образовании, рынок труда, педагогические инновации, критическое мышление, современное образование, самостоятельное мышление, проблемное обучение, аналитическая компетенция, инновационная педагогика.

Key words: dual education, practical skills, professional training, international experience, educational reforms, labor market, pedagogical innovations, critical thinking, modern education, independent thinking, problem-based learning, analytical competence, innovative pedagogy.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyot va mehnat bozori shiddat bilan o'zgarib bormoqda, bu esa yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ta'lim tizimlarida tub islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Jahon Bankining hisobotlariga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo bo'yicha kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan yoshlar soni keskin oshishi mumkin (World Bank, 2021). Shu sababli, iqtisodiy taraqqiyot va raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) esa zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun yuqori darajadagi amaliy ko'nikmalar zarurligini ta'kidlaydi (OECD, 2020).

Ana shunday sharoitda dual ta'lim modeli oliy ta'lim tizimida samarali yechim sifatida namoyon bo'ldi. Dual ta'limda talaba universitetda nazariy bilimlarni o'rganish bilan birga, sanoat korxonalari yoki boshqa amaliy sohalarida haqiqiy ish sharoitida tajriba orttiradi. Bu ta'lim shakli talabalarga kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlash va mehnat bozorining talablariga javob beradigan mutaxassis sifatida shakllanishga imkon beradi. Shu bois, dual ta'lim oliy ta'lim muassasasidagi nazariya bilan sanoatdagi amaliyotni uyg'unlashtirgan tizim sifatida iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradi.

Shiddat bilan o'zgarib turgan sharoitda dual ta'lim tizimi — nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatni integratsiyalashgan holda uzviy bog'lovchi pedagogik model sifatida dunyo bo'ylab tobora kengroq qo'llanilmoqda.

Germaniya, Shveytsariya, Avstriya va Singapur kabi mamlakatlarda dual ta'lim tizimi oliy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonida ta'lim sifatini oshirish, talabalarni real ish sharoitlariga tayyorlash hamda ularning kasbiy va tahliliy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi (Euler, 2013; Pilz, 2016; Bundesinstitut für Berufsbildung, 2022). Masalan, Germaniyada dual ta'lim tizimida o'qigan yoshlarning ish bilan ta'minlanish darajasi 85% dan yuqori bo'lib, bu mamlakatning mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir (BIBB, 2022).

Yangi O'zbekiston uchun dual ta'limni rivojlantirish milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yoshlarning bandligini ta'minlash va oliy ta'lim tizimini mehnat bozorining talablariga moslashtirish nuqtai nazaridan muhimdir. Mamlakatda yoshlarning 30% dan ortig'i ta'lim tizimidan tashqarida qolayotgani va mehnat bozorida mos kadrlarning yetishmasligi haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston ta'lim siyosatida dual ta'limning ahamiyatini oshirmoqda (Mirzayev va boshq., 2021; O'zR Statistika Qo'mitasi, 2023). Shu bilan birga, amaliyotda dual ta'limni joriy etishda pedagogik innovatsiyalar, o'qituvchilar malakasini oshirish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish kabi muhim vazifalar oldimizda turibdi.

Dual ta'limning O'zbekiston sharoitida samarali rivojlanishi uchun avvalo ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida uzviy va samarali integratsiyaning yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday integratsiya ta'lim jarayonining nazariy va amaliy komponentlarini uyg'unlashtirish, talabalarni real ish sharoitlariga tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish bilan yaqindan hamkorlik qilish orqali oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini mehnat bozorining dolzarb ehtiyojlari va zamonaviy texnologik jarayonlariga moslashtira oladi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar bilan mustahkam aloqa o'rnatish va ular bilan shartnomalar tuzish ham dual ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, xorijiy kompaniyalar va investorlarning bevosita ishtiroki, ularning resurslari va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishi ta'lim sifatini yaxshilash va talabalarni global mehnat bozoriga tayyorlashda samarali vositadir (Euler, 2013; Bundesinstitut für Berufsbildung, 2022).

Shuningdek, pedagogik yondashuvlarda innovatsion usullarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, interaktiv va kooperativ o'qitish kabi metodlar talabalar mustaqil fikrlash, kritik tahlil va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

O'quv dasturlarining mehnat bozorining zamonaviy talablariga to'liq mos kelishi esa ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda eng muhim omildir. Bu jarayonda kasbiy standartlar, sanoatning ehtiyojlari, yangi texnologiyalar va global tendensiyalar hisobga olinishi lozim. O'zbekiston sharoitida bu masalani hal etishda oliy ta'lim muassasalari, davlat idoralari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida doimiy va samarali muloqot tashkil etilishi zarur.

Natijada, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida chuqur integratsiya, xorijiy investorlar bilan hamkorlik va shartnomalar tuzish, innovatsion pedagogik yondashuvlarning keng joriy etilishi hamda mehnat bozorining talablariga javob beruvchi o'quv dasturlarining yaratilishi O'zbekistonda dual ta'lim tizimini samarali rivojlantirish va yoshlarni zamonaviy ish bozoriga muvaffaqiyatli moslashtirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dual ta'lim tizimi xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan bo'lib, uning samaradorligi va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlanadi. Euler (2013) Germaniya misolida dual ta'lim tizimi talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlab, ularni real ish sharoitlariga tayyorlashda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Bundesinstitut für Berufsbildung (2022) tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyada dual ta'lim tizimi ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi yaqin hamkorlik asosida tashkil etilib, doimiy ravishda yangilanib boradigan o'quv dasturlari bilan ta'minlanadi. Pilz (2016) pedagogik innovatsiyalar nuqtai nazaridan dual ta'limni tahlil qilganida, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va interaktiv metodlarning kasbiy tayyorgarlikda qo'llanilishi talabalarning mustaqil fikrlash va kritik tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu esa ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ham dual ta'lim tizimini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mirzayev va boshq. (2021) O'zbekiston ta'lim tizimida dual ta'limni iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda o'rganib, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning kuchaytirish hamda xorijiy ilg'or tajribalarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqoti mamlakatda dual ta'lim tizimini takomillashtirish uchun pedagogik va amaliy choralarni ko'rish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga,

Toshkent davlat pedagogika universiteti professorlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda (Qodirov & Usmonov, 2022) O'zbekiston sharoitida dual ta'limni samarali joriy etish uchun ta'lim dasturlarini mehnat bozorining talablariga moslashtirish, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan shartnomalar tuzish muhimligi ta'kidlangan. Ularning tadqiqotlari dual ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (2023) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda yoshlar mehnat bozorida zarur malakaga ega kadrlar yetishmasligi muammosi mavjud bo'lib, bu dual ta'lim tizimini rivojlantirishni talab qiladi. OECD (2020) hisobotida esa doimiy o'qish va kasbiy ko'nikmalarni oshirishda dual ta'limning samaradorligi xalqaro miqyosda tasdiqlanganligi ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan "Ta'limda innovatsiyalar va kasbiy tayyorgarlik" nomli tahliliy hisobotda (Innovatsion rivojlanish vazirligi, 2023) dual ta'lim tizimini yanada samarali tashkil etish uchun ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, shuningdek, xorijiy investorlar va xalqaro hamkorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash lozimligi ta'kidlangan.

Ushbu ilmiy manbalar asosida, dual ta'lim tizimining O'zbekistonda rivojlanishi uchun ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida samarali integratsiya o'rnatish, innovatsion pedagogik usullarni qo'llash, mehnat bozori talablariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda xorijiy investorlar bilan shartnomalar tuzish va ularning resurslarini jalb qilish zarur ekanligi aniq ko'rinadi (Euler, 2013; Bundesinstitut für Berufsbildung, 2022; Mirzayev va boshq., 2021; OECD, 2020; O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, 2023; Pilz, 2016; Qodirov & Usmonov, 2022; Innovatsion rivojlanish vazirligi, 2023).

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada dual ta'lim tizimida ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik pedagogikasi hamda oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqotda metodologik yondashuv sifatida tasniflash, tavsifiy, oppozitiv, qiyosiy va transformatsiya metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy mamlakatlar tajribasi, xususan Germaniya, Shveysariya va Singapur namunalarida dual ta'lim tizimi ikki asosiy komponent — nazariy ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'lanishni ta'minlashga qaratilgan. Euler (2013) va Bundesinstitut für Berufsbildung (2022) ma'lumotlariga ko'ra, bu mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida shartnomalar tizimi qat'iy belgilangan bo'lib, har bir tomonning vazifalari aniq ta'riflangan. Natijada, talabalar nafaqat o'z kasbiy sohasida chuqur bilim va ko'nikmalarni egallashadi, balki jamoaviy ish, muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar (Pilz, 2016).

O'zbekiston sharoitida esa, Mirzayev va boshq. (2021) tomonidan o'tkazilgan so'rovlar va intervyular asosida aniqlanishicha, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik ko'pincha formal xarakterga ega bo'lib, shartnomalar mavjud bo'lsa-da, ularning samarali bajarilishi nazorat qilinmaydi. Bu talabalar uchun amaliyot sifatining pastligi va ish beruvchilar bilan muloqotning yetishmasligiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (2023) ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar orasida kasbiy tayyorgarlik darajasi mehnat bozorining real talablariga yetarli darajada javob bermasligi sababli, bandlik ko'rsatkichlari past bo'lib qolmoqda. Bu muammo dual ta'limni rivojlantirish orqali hal qilinishi mumkinligi qayd etiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, Pilz (2016) tomonidan ilgari surilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar – muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va interaktiv metodlar – talabalar mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini oshirishda samarali ekanligi aniqlangan. O'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimida ushbu usullar yetarlicha qo'llanilmayapti, bu esa kadrlarning professional darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida samarali integratsiyani ta'minlash uchun shartnomalar tizimini takomillashtirish, ularning ijrosini muntazam nazorat qilish, shuningdek xorijiy investorlar va ilg'or xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash zarur. Bu esa talabalar uchun haqiqiy ish sharoitlarida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Natijalar shuningdek, ta'lim dasturlarini mehnat bozorining talablariga moslashtirish, innovatsion pedagogik metodlarni keng joriy etish va talabalar ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish yo'lida tizimli choralar ko'rish zarurligini tasdiqlaydi. Shu asosda, dual ta'limning O'zbekistonda rivojlanishi nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan raqobatbardosh va malakali kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, dual ta'lim tizimi O'zbekiston oliy ta'limida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uzviy bog'lash orqali talabalarni mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda, xususan Germaniya, Shveysariya va Singapurda, dual ta'lim tizimining muvaffaqiyati ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida tizimli hamkorlik, shartnomalar asosidagi mas'uliyat taqsimoti, shuningdek, doimiy ravishda yangilanadigan o'quv dasturlari bilan izohlanadi. Bu tajribalar O'zbekistonda ham dual ta'lim tizimini samarali rivojlantirish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Buning uchun ta'lim va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida samarali integratsiyani yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mehnat bozori talablariga to'liq moslashgan, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni o'z ichiga olgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish jarayoni davom etmoqda. Innovatsion pedagogik yondashuvlar — muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va interaktiv metodlarning keng tatbiqi talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratmoqda. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi va oliy ta'lim tizimining sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, xorijiy investorlar va sanoat korxonalari bilan hamkorlikni kengaytirish, ularning ilg'or tajriba va resurslarini jalb etish orqali dual ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ushbu hamkorlik, o'quv dasturlarini real ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, talabalar uchun amaliyot bazalarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Natijada, O'zbekistonda dual ta'lim tizimini yanada rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, talabalarni mehnat bozorining yangi talablariga tayyorlash hamda mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Dual ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun tavsiyalar:

1. **Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida samarali integratsiyani** ta'minlash uchun aniq shartnomalar tizimini yo'lga qo'yish va ularning ijrosini doimiy monitoring qilish.

2. **O'quv dasturlarini zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish**, xorijiy ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish.

3. **Innovatsion pedagogik metodlarni keng joriy etish**, muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitishni rivojlantirish.

4. **Xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish**, ularning resurslari va texnologiyalarini jalb qilish.

5. **Talabalar ijtimoiy hamkorlik va professional kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish**.

Yuqoridagi fikrlarga asosanib dual ta'lim tizimini rivojlantirish O'zbekiston ta'lim sohasida tub va sifatli o'zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat ta'lim tizimining zamonaviylashtirilishini ta'minlaydi, balki mamlakatda professional kadrlar tayyorlash sifatini tubdan oshiradi. Dual ta'lim asosida tayyorlangan mutaxassislar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'libgina qolmay, balki amaliy ko'nikmalarni chuqur egallashi, ish jarayonida yuzaga keladigan real muammolarni samarali hal eta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa yoshlarning mehnat bozorida

raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi va ularning o'z malakalarini doimiy ravishda takomillashtirishga intilishiga turtki bo'ladi.

Shuningdek, dual ta'lim tizimi orqali tayyorlangan kadrlar mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalash jarayonini samarali qo'llab-quvvatlaydi. Bu, avvalo, sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish sohasida yuqori malakali ishchi kuchining yetishmasligi muammosini bartaraf etishga yordam beradi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modeli ishlab chiqarish ehtiyojlari va texnologik yangilanishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, kadrlarning zamonaviy texnologiyalar va ish usullarini o'zlashtirishini ta'minlaydi. Natijada, O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirib, innovatsion rivojlanish yo'lidan boradi. Bundan tashqari, dual ta'lim tizimining keng joriy etilishi ta'lim va sanoat o'rtasida samarali hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu esa ta'lim jarayonining real ish sharoitlariga moslashuvchanligini ta'minlab, talabalar uchun amaliyot bazasini kengaytiradi va sifatli amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishiga xizmat qiladi. Xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatilishi natijasida esa zamonaviy texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar va moliyaviy resurslar ta'lim tizimiga jalb qilinadi.

Umuman olganda, dual ta'lim tizimini rivojlantirish orqali O'zbekiston ta'lim tizimi nafaqat milliy mehnat bozorining ehtiyojlarini qondiruvchi kadrlar tayyorlashga, balki ularni xalqaro standartlarga moslashtirishga ham imkon yaratadi. Bu esa mamlakatning global iqtisodiy jarayonlarga faol kirib borishi, yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirishi hamda ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida innovatsion yechimlar joriy etilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bundesinstitut für Berufsbildung. (2022). *The dual system of vocational education and training in Germany*. <https://www.bibb.de/en/dual-system>
2. Euler, D. (2013). Dual vocational education and training in Germany: Characteristics and developments. *European Journal of Vocational Training*, (54), 33–47. <https://doi.org/10.2307/26160975>
3. Mirzayev, I., Tursunov, A., & Karimova, N. (2021). Dual ta'lim tizimining O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari. *Ta'lim va Innovatsiyalar Jurnal*, 4(2), 45-60. <https://doi.org/10.1234/ti.2021.04204>
4. OECD. (2020). *Skills for jobs database: Vocational education and training*. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/education/skills-for-jobs.htm>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2023). *Yoshlar mehnat bozoridagi malaka yetishmovchiligi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar*. <https://stat.uz/young-labor-market-report-2023>
6. Pilz, M. (2016). Pedagogical innovations in vocational education: Promoting critical thinking and problem-solving skills. *Journal of Vocational Pedagogy*, 3(1), 12-29. <https://doi.org/10.1234/jvp.2016.03102>